

# XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

---

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

---

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

## PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL  
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

# 2022

**1-son**  
(yanvar-fevral)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqqa boshlagan  
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



### TAHRIRIYAT



**4** O'qigan kishi, yangi fikr, yangi g'oya va tashabbuslar bilan yuradi

### TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI



**X. Ibragimov**

**6** Kommunikativ kompetensiya – bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning muhim mezoni sifatida

**O. Ro'zibayev**

**10** Ta'lrim jarayonida talabalarning kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish yo'llari

**J. Meliqo'ziyev**

**13** Diniy-ma'rifiy soha tarraqqiyotining yangi davrida tashkiliy-huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy asoslarning mustahkamlanishi

**N. Xujayarova**

**19** Bo'lajak pedagoglarda kreativ sifatlarning shakllanishi

**K. Kayumova,  
F. Tolipov**

**22** Ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etishning ayrim nazariy-metodologik jihatlari xususida

**S. Yuldashev**

**27** Umumiyl o'rta ta'lim muassasalarida texnologiya fanining ahamiyati

**D. Ximmataliyev,  
A.Jumanov**

**31** Kasb ta'limi o'qituvchilarini pedagogik integratsiya asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash

**M. Parpiyeva**

**34** Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy autopedagogik kompetentlikni rivojlantirish

**D. Shahmurodova**

**39** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy matn ustida ishslash orqali nutq o'stirish tamoyillari

**M. Maksumova**

**42** Integrativ rivojlantiruvchi yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarini kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish

**Sh. Xayitova**

**45** Innovatsion yondashuv asosida talabalarни mustaqil faoliyatini rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari

**D. Abdullayev**

**48** O'quvchi-yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalashda milliy qadriyatlarimizning o'mi



### TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI



**L. Namazbayeva**

**52** Adabiyot darslarida tarix, tasviriy san'at, musiqa fani material-lardan foydalananishning pedagogik-psixologik asoslari

**M. Atoyeva**

**55** Fizika ta'limalda sinergetik texnologiyalarning ahamiyati

**G. Yaxyoyeva**

**59** Chet tilini o'qitish jarayonida talabalar ijodiy faolligini rivojlantirishning pedagogik shartlari

**O'. Farmonov**

**61** Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida fikrlash madaniyatini shakllantirish



### ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI



**M. Niyozqulov**

**65** Boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy texnologiyalaridan foydalananish

**A. Abdazimov**

**68** Kredit-modul tizimi – oliy ta'limging mehnat bozoriga transformatsiyasining ijtimoiy-pedagogik asosi



### MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI



**Sh. Ne'matov**

**72** Uyg'onish davri ma'rifikatparvarlari faoliyati: tadqiq va xulosa

**O. Akbarov**

**78** Badiiy adabiyotda oila tarbiyasi bilan bog'liq ethnopedagogik qarashlarning ifodalananishi

o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga pedagogik integratsiya asosida tayyorlash jarayoni yuksak umumbashariy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faoliikkiga, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda to'g'ri yo'lni tanlay bilish mahoratiga ega bo'lish, istiqbol vazifalarini ilgari surish va amalga oshirishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirish lozim.

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida ularni kelgusidagi faoliyatining maqsad va vazifalari, xususiyatlari, sharoitlari, kasb-hunar mutaxassisliklari bilan tanishtirish, turli xil kasblar to'g'risida ma'lumotlar, axborotlar berish, to'g'ri kasb tanlash va egallashlariga sharoit yaratish kabi turli tadbirlar amalga oshirish bugungi kunning dolzarb masalasi bo'lishi shart.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi 2020-yil, 23-avgustdagi 637-sonli qonuni.
2. Ximmataliyev D.O. "Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi" nomli dissertatsiyasi. – T., 2018-y.
3. Кузмина Н.В. Очерки психологии и труда учителя. Психологическая структура деятельности учителя и формирование личности / Н.В. Кузмина. - -Л.: Изд.-во ЛГУ, 1987. – С.104.
4. Латюшин В.В. Антропотцентрированный подход к профессионально-педагогической подготовке будущего учителя // Педагогика – 2003. № 9. – С. 50-58.

**Malika PARPIYEVA,**

Chirchiq davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

## BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KASBIY AUTOPEDAGOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH

### Annotation

Maqolada autopedagogik kompetentlik takomillashtirish, ularning samaradorligini ta'minlovchi omillarni ilmiy-nazariy talqin qilish, qo'yilgan muammolarni hal etish uchun taklif etilayotgan akmeologik yondashuv texnologiyalarini qo'llash, samarali usul va vositalarni ishlab chiqish, kasbiy ta'lilda o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligi va sifatini oshirish uchun foydalaniladigan o'quv-uslubiy ko'rsatmalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar.** Autopedagogik kompetentlik, samarali usullar, samaradorlik, akmeologik yondashuv, shaxsiy ijodiy fazilatlar, kelajakdag'i ta'lim faoliyati, ilg'or pedagogik texnologiyalar.

В статье рассматриваются вопросы совершенствования аутопедагогической компетентности, научно-теоретической интерпретации факторов, обеспечивающих их эффективность, использования предложенного акмеологического подхода к решению задач, разработки эффективных методов и средств обучения, используемых для повышения эффективности и качество учебного процесса, даны методические указания.

**Ключевые слова.** Аутопедагогическая компетентность, эффективные методы, эффективность, акмеологический подход, личностные творческие качества, будущая учебная деятельность, передовые педагогические технологии.

---

The article discusses the issues of improving auto-pedagogical competence, the scientific and theoretical interpretation of the factors that ensure their effectiveness, the use of the proposed acmeological approach to solving problems, the development of effective methods and teaching tools used to increase the efficiency and quality of the educational process, guidelines are given.

**Key words.** Autopedagogical competence, effective methods, efficiency, acmeological approach, personal creative qualities, future educational activities, advanced pedagogical technologies.

**M**amlakatimizda malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ishlar olib borilayotgan bir sharoitda kasbiy autopedagogik kompetentlik, kasbiy mahorat va madaniyatning yetarli darajada emasligi, kasbiy mahoratni shakllantirish va bo'lajak o'qituvchining autopedagogik kompetentligini rivojlantirish muammolari bo'yicha tadqiqot ishini olib borish alohida ahamiyat kasb etadi.

Autopedagogik kompetentlikni shakllantirishni modellashtirishning nazariy-metodologik asoslari, bo'lajak o'qituvchining shakllanish jarayoni, uning ijodiy pedagogik individualligi ochib berilmasligini faoliyatda kasbiy shakllanishini aniqlash hisobga olinmasligini bildiradi. Shu sababli olingen ilmiy ma'lumotlar va ular asosida ishlab chiqilgan tavsiyalardan mutaxassislar tomonidan turli innovatsion izlanishlar va ishlanmalar bo'yicha foydalanish, bo'lajak o'qituvchining autopedagogik kompetentligini rivojlantirish muammosini o'rganishning ilmiy-amaliy vositalari taklif etilishi muhim ahamiyatga ega.

Bo'lajak o'qituvchining autopedagogik kompetentligining me'yoriy-prognostik modelini sinovdan o'tkazish, ijtimoiy-pedagogik tizimda, o'quvchilar jamoasi – o'quvchi shaxsida mahsuldar muammolarni hal qilish algoritmlari tizimini ishlab chiqqan holda, bo'lajak mutaxassislarning autopedagogik kompetentligini rivojlantirishni optimallashtirishga mo'ljallangan o'quv qo'llanma va tavsiyalarni ishlab chiqishda ilmiy-uslubiy asos sifatida foydalanish mumkin.

Bo'lajak o'qituvchining autopedagogik kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik tizimini ishlab chiqishda, bo'lajak o'qituvchining malakasini oshirishda hal qiluvchi rol ijtimoiy shart-sharoitlarga tegishli bo'lib, shaxs faoliyatiga, o'z-o'zini tarbiyalashga muhim ahamiyat beriladi.

Shu maqsadda, o'qituvchini o'z kasbining "Akme" elementlarini yaratishga imkon beruvchi asosiy tarkibiy qismlarga (bilim, muloqot, o'z-o'zini tarbiyalash professionalizmi) ega bo'lgan bo'lajak o'qituvchining autopedagogik kompetentligining me'yoriy-prognostik modeli ishlab chiqildi. "Akme" holati elementlarini modellashtirishda shaxsning psixofiziologik zaxiralardan foydalanishni nazarda tutib, bo'lajak yo'nalishida bo'lajak o'qituvchini o'qitish jarayonida autopedagogik kompetentlikni rivojlantirish uchun me'yoriy-prognostik modelni ishlab chiqish psixologik-pedagogik jihatdan asoslanadi.

Bo'lajak o'qituvchining autopedagogik kompetentligini rivojlantirish jarayonini optimallashtirish yo'llari, "Men-obrazi" ijtimoiy-pedagogik tizimida pedagogik muammolarni unumli hal etish algoritmlarini taklif etish zarur.

Shu o'rinda tadqiqotning tajriba-sinov qismi natijasida bo'lajak o'qituvchining autopedagogik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik tizimi ishlab chiqiladi.

Ma'lumki, doimiy tayyorgarliksiz faol ijodiy pedagogik shaklni saqlab qolish mumkin emas: ichki tasavvurlar, fikrlar, harakat madaniyati oqimini o'zlashtirish, aktyorlik va rejissyorlik san'ati darajasida pedagogik tafakkurni takomillashtirish metodlari va strategiyalarini o'zlashtirishni o'rganish muhim ahamiyatga ega.

O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari va bo'lajak o'qituvchisining autopedagogik kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchining kasbiy shakllanish jarayonida uning ijodiy pedagogik individualligi ochib berilmaydi va shakllanmaydi. Kasbiy kompetentlikni egallashning qiyinligi shun-

daki, kasbiy bilimlar metodologik, nazariy va metodik jihatdan barcha darajalarda birdaniga shakllanishi lozim. Tizimli yondashuvni pedagogik tajriba bilan birgalikda qo'llab, kasbiy o'sish yo'nalishini o'rganish jarayonini professionalizatsiya qilish muammosini hal qilish inson fanlari majmuasini bilimlar tizimiga birlashtirish imkoniyatini ko'rsatadi.

Bo'lajak mutaxassisining autopedagogik kompetentligini rivojlantirish jarayonini optimallashtirish yo'llari ishlab chiqilgan holda, bo'lajak o'qituvchisining, talabalar ja-moasi-talaba shaxsining ijtimoiy-pedagogik tizimida kasbiy muammolarni unumli hal etish algoritmlari taklif etiladi.

Bo'lajak o'qituvchining autopedagogik kompetentligini rivojlantirish OTM va undan keyingi ta'lilda mutaxassisni takomillashtirish sharoitida omillarni aniqlashga asoslangan o'ziga xos tuzilish, mazmun, bosqich va rivojlanish darajalari bilan tavsiflanadi.

Bo'lajak o'qituvchining autopedagogik kompetentligini samarali rivojlantirish modellarini aniqlash, tartibga solinmagan ta'lim jarayoni psixologik-pedagogik, umumiy nazariy va umumiy madaniy kompetentlikni shakllantirishga, pedagogika fani yutuqlarini va ish amaliyotida eng yaxshi amaliyotlarni amalga oshirishga tayyorligiga, shuningdek, o'z-o'zini takomillashtirish, o'z-o'zini tashkil etish va kasbiy faoliyatga tayyorgarlikda o'z-o'zini tuzatishga katta ta'sir ko'rsatadi. Bo'lajak o'qituvchining autopedagogik kompetentligini rivojlantirish pedagogik tizim yaratish uchun akmeologik yondashuvni qo'llash taklif etiladi.


Demak, bo'lajak o'qituvchining autopedagogik kompetentligi samaradorligini oshirish imkoniyati kasbiy bilimlar barcha darajalarda: metodik, nazariy va metodik bir yo'la shakllantirilganda namoyon bo'ladi.

Bo'lajak o'qituvchisining autopedagogik kompetentligi pedagogik mahorat va texnologiyalarning aktyorlik va rejissyorlik darajasidagi kasbiy mahoratiga bog'liq. Uning pedagogik faoliyati professionalizmi shaxsiy faoliyatga yo'naltirilgan xarakterda bo'ladi. Bu yerda albatta o'qituvchining ijtimoiy va umuminsoniy fazilatlarini, kasbiy-pedagogik sifatlarini va shaxsni o'z ichiga olgan o'z-o'zini tarbiyalash bilan shug'ullanuvchi shaxs tuzilishiga katta ahamiyat beriladi.

Shu sababli bo'lajak o'qituvchining autopedagogik kompetentligini rivojlantirishning modelini ishlab chiqishga, pedagogik jarayon vazifalarining asosiy guruhlarini yechish bilan bog'liq algoritmlarni yechishga va pedagogik vazifalarни unumli hal etish algoritmlariga bog'liq.

Pedagogik jarayonda psixologik-pedagogik, umumiy nazariy va umumiy madaniy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishga, pedagogika fani yutuqlarini va eng yaxshi amaliyotlarni o'z-o'zini takomillashtirish va kelajakdagи mutaxassisning kasbiy faoliyatini o'z-o'zini tuzatishga tayyorligiga eng katta ta'sir ko'rsatadi. Bo'lajak o'qituvchining autopedagogik kompetentligidagi kommunikativ komponenti fanning o'ziga xos xususiyatlari bo'lajak yo'nalishni o'qitishda kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarining rivojlanishini ta'minlaydi.

Oliy ta'lilda innovatsion ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni, ta'lim berish vositalari va motivatsiya, jarayon ishtirokchilari (talabalar, o'qituvchilar), faoliyat natijalari kabi bir necha qismidan iborat tarkibiy tuzilishga ega va bo'lajak bo'lajak yo'nalishini o'qitishda talaba faoliyatini tashkil etish va ta'lim jarayonini nazorat qilish kabi bir-biri bilan aloqador ikki o'zaro bog'liq komponentga ajratiladi.



**1-rasm. Autopedagogik kompetentlikning tarkibiy qismlari**

Autopedagogik kompetentlikning quyidagi tarkibiy qismlari mavjud:

1. O'z-o'zini namoyon etishi, o'zi-o'zini yutuqqa yetaklashi va mustaqil bo'lishi.
2. O'zini va ta'lim muhitini o'zgartirish uchun faol bo'lishga tayyorlik.
3. O'z faoliyati mazmunini muammoli ko'rish va pedagogik vazifalarni ijodiy hal etish.
4. Jarayon va o'zining faoliyati natijasidan subyektiv qoniqish, pedagogik refleksiya ega bo'lish.

Bo'lajak o'qituvchining autopedagogik kompetentligining tarkibiy qismlari (1-rasm) sifatida pedagogik texnologiyalar va aktyorlik va rejissyorlik san'ati muammosining nazariy shartlarining zamonaviy yondashuvlari tahlili amalga oshirildi va bo'lajak o'qituvchisining avtopedagogik kompetentligining me'yoriy-prognostik modeli mazmuni ishlab chiqilishi zarur.

Professionallik va kompetentlik bir-biriga o'xshash bo'lsada, har xil ma'noga ega bo'lgan atamalardir. Professionallik deganda, nafaqat ma'lum bilimlar, balki mehnatga bo'lgan munosabat, ishning o'ziga xos xususiyatlari tushuniladi. Rivojlangan kompetensiyalar darhol seziladi, chunki professional pedagog o'z ko'nikmalarini rivojlantirishga harakat qiladi, muayyan maqsad va natijalarga erishishga intiladi, ishchan qadriyatlar ishlab chiqaradi va bular odatda ish jarayonining standartiga mos keladi. Kompetentlik esa biroz murakkab mazmunga ega, sababi, nafaqat bilimlarning mavjudligini, balki shu bilan birga ularni qo'llash qobiliyatini ham taqozo etadi. Kompetentlik faqat keng qamrovli baholash va kuzatish paytida aniqlanishi mumkin.

O.M. Shiyan ta'rifiga ko'ra, "autopedagogik kompetentlik" – o'qituvchining maktab tomonidan unga qo'yilgan talablar talablar majmui doirasida o'z-o'zini takomillashtirish va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatni bo'lib, uning pedagogik texnologiyani egallashi va pedagogik faoliyatga nisbatan qadriyatli munosabatidir.

Bo'lajak o'qituvchining autopedagogik kompetentligini unumli rivojlantirishni optimallashtirish qonuniyatları, mexanizmları, shart-sharoitları va omillari tadqiq etiladi. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining autopedagogik kompetentligini shakllantirishning nazariy modelini tuzishda quyidagi yondashuvlarga tayandik:

- 1) Kompetentli yondashuv: tarkibiy qismlar sifatida "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalari mazmunida turli mualliflar: faoliyatga tayyorlik, faoliyatga egalik, faoliyatga jalb etish o'lchovi, muvaffaqiyatli, mustaqil va samarali faoliyat tajribasi;

shaxsning shaxsiy sifatlari va uning qobiliyatları, intellektual va qadriy-emotsional xususiyatlari deb ta'riflaydilar.

2) Protsessual-kognitiv. Protsessual-kognitiv yondashuv bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikning ikki tarkibiy qismini: shaxsning kognitiv darajasi va tafakkurning metodik turini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Bu ikki tarkibiy qism o'zaro bog'liq bo'lib, ular bo'lajak o'qituvchining samaradorligining asosini tashkil etadi.

3) Subyektiv – faoliyatli yondashuv. Bunday yondashuv doirasida faoliyatda faol subyektiv holat shakllanadi, bo'lajak o'qituvchining kasbiy yo'nalganligi, o'z kasbining ahamiyatini anglashi va doimiy o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini takomillashtirish motivatsiyasining ortishi amalga oshiriladi.

4) Individual-ijodiy yondashuv. Kasb ta'limi jarayonida talabaning o'ziga individual – ijodiy yondashuvi strategiyasi va kasbiy-ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish va bo'lajak mutaxassisning individualligini shakllantirish va o'z-o'zini boshqarish strategiyasi va taktikasi.

5) Innovatsion yondashuv. Ushbu yondashuv texnologiya fanini o'qitishda an'anaviy yondashuvlardan holi bo'lib, talabalarning innovatsion faoliyati, ularning bilish va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga bo'lgan intilishi hamda kasbiy faoliyatda o'z-o'zini anglashiga yo'naltirilgan.

O'qituvchining autopedagogik kompetentligi quyidagi komponentlarning mavjudligini ta'minlaydi: motivatsion, kommunikativ, ijodiy, gnostik va refleksiv.

Bo'lajak o'qituvchining autopedagogik kompetentligini shakllantirishning nazariy modelini amalga oshirishning maqsadi – o'qituvchining ijodiy individualligini shakllantirish, uning tashabbuskor va mahoratli, pedagogik innovatsion ta'lim muhitida o'zini-o'zi takomillashtirishi va o'zini-o'zi namoyon etishi qobiliyatini rivojlantirishdan iborat.

### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Базикова А.А. Аутопсихологическая компетентность как компонент учебно-воспитательного процесса в музыкальных учебных заведениях: Дис... к.п.н. – М.: ПроСофт, 2003. – С. 167.
2. Islamova M.Sh. Yoshlarda kreativ tafakkurni shakllantirishning pedagogik asoslari/ Xalq ta'limi Respublika ilmiy-metodik jurnalı, (ISSN 2181- 7839) 2020 yil 3-soni. – 33-37-betlar. (13.00.00; №17).
3. Масовер Н.Ю. Становление аутопедагогической компетентности будущего преподавателя классического университета // Вестник Новгородского государственного университета. – 2009. – №53. – С. 46.
4. Прокофьева М.Ю. Профессионально-педагогическая компетентность как интегральная характеристика будущего педагога // Крымский государственный гуманитарный институт (г. Ялта). – 2004. – С. 4.
5. Шиян О.М. Аутопедагогическая компетентность учителя//Педагогика. –1999. – №1. – С. 63.